

ARAB TILIDA MOSLASHGAN ANIQLOVCHI

G'ofurova Gulnoza G'ulomsher qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

gulnozagofurova2005@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilidagi moslashgan aniqlovchi mavzusi o'rganib chiqilgan. Moslashgan aniqlovchi mavzusi o'z ichiga to'rtta grammatik kategoriyanı qamrab olgan bo'lib, ularning o'zaro moslashish holatlari tushuntirib o'tilib, misollar bilan sharhlab berilgan. Arab tili o'rganuvchilari uchun ba'zan qiyinchiliklarni tug'diradigan moslashgan aniqlovchi mavzusi, ushbu maqolada oson holda tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: ism, ot, sifat, aniqlovchi, jins, son, holat, kelishik.

Аннотация. В данной статье изучена тема согласованного определения в арабском языке. Тема согласованного определения охватывает четыре грамматические категории, и их взаимное согласование объяснено и проиллюстрировано примерами. Тема согласованного определения, которая иногда вызывает трудности у изучающих арабский язык, в данной статье представлена в доступной форме.

Ключевые слова: имя, существительное, прилагательное, определение, род, число, падеж, состояние.

Annotation. This article examines the topic of concordant modifiers in the Arabic language. The topic of concordant modifiers encompasses four grammatical categories, and their agreement is explained and illustrated with examples. The subject, which sometimes poses challenges for learners of Arabic, is presented in a simple and accessible manner in this article.

Keywords: noun, name, adjective, gender, number, case, state.

Ism bilan ifodalangan biror gap bo'lagining belgisi, xususiyatini bildirib kelgan bo'lak "aniqlovchi" (نعت) ataladi. Aniqlovchi aniqlab kelayotgan so'z "aniqlanmish" (منعوت) hisoblanadi.

Na't ikki turga bo'linadi:

1. Na't haqiqiy,
2. Na't sababiy.

"Na't haqiqiy" matbu'(ergashilgan)ning o'zida bo'lgan sifatni bildiradigan sifatga aytiladi.

Masalan: قَرَأْتُ الْكِتَابَ الْمُتَمِّعَ – Qiziqarli kitobni o'qidim.

Ushbu misolda "الْمُتَمِّعَ" so'zi "na't haqiqiy" hisoblanadi.

“Na’t sababiy” matbu’ (ergashilgan)ning o‘zidagi sifatni ko‘rsatmay, balki matbu’ bilan aloqasi bo‘lgan narsaning sifatini ko‘rsatadi.

Masalan: رَأَيْتُ الرَّحْلَ الْكَثِيرَ مَالَهُ – *Mol-dunyosi ko‘p kishini ko‘rdim.*

Ushbu misolda “الكثير” kalimasi “الرجل” kalimasining sifati bo‘lmagan. Balki “ماله” ning sifati bo‘lgan. Molning esa odam bilan aloqasi yo‘q. Chunki u kishining mulki bo‘lgan.

Agar moslashgan aniqlovchi sifat, tartib son, sifatdosh bilan ifodalangan bo‘lsa, aniqlanmishdan keyin keladi va u bilan to‘rt jihatda moslashadi:

1. Arab tilida jins kategoriyasi mavjud. U ikki turga bo‘linadi: muannas va muzakkar. Aniqlanmish qaysi jinsda bo‘lsa aniqlovchi ham o‘sha jinsda bo‘ladi.

Masalan:

بَيْتٌ جَدِيدٌ - *yangi uy*
مَدِينَةٌ جَمِيلَةٌ - *chiroyli shahar*
بَابٌ قَدِيمٌ - *eski eshik*

2. Holat kategoriyasi ham ikki turga bo‘linadi, ya’ni aniq va noaniq holat. Agar aniqlanmish aniq holatda bo‘lsa, aniqlovchi ham aniq holatda bo‘ladi. Agar noaniq holatda bo‘lsa, aniqlovchi ham noaniq holatda bo‘ladi.

Masalan:

تَلْمِيذٌ نَشِيطٌ - *(noma’lum) faol o‘quvchi*

Ushbu misolda "تلميذ" kalimasi noaniq holatda bo‘lganligi sababli "نشيط" kalimasi ham noaniq holatda bo‘ldi.

الطِّفْلَةُ الصَّغِيرَةُ - *(ma’lum) kichkina qizcha*

Ushbu misolda "الطفلة" kalimasi aniq holatda bo‘lganligi sababli "الصغيرة" kalimasi ham aniq holatda bo‘ldi.

Sifatlovchi aniqlovchining aniqlanmish bilan holatda moslashishi majburiy, aks holda bu aniqlovchi va aniqlanmishning moslashishi bo‘lmay, balki ega va kesimning moslashishi, ya’ni ismiy gap bo‘lib qoladi.

Masalan:

الدَّرْسُ مَفْهُومٌ - *Dars tushunarlidir.*

Ushbu ismiy jumlada "الدرس" so‘zi muftado (ega), "مفهوم" so‘zi esa xobar (kesim) hisoblanadi.

3. Aniqlovchi aniqlanmish bilan kelishikda ham moslashadi. Ismda 3 ta e’rob turlari mavjud:

- “رفع” (rof) – bosh kelishik,
- “نصب” (nasb) – tushum kelishigi,
- “جر” (jar) – qaratqich kelishigi.

جَاءَ الطَّالِبُ الْمُجْتَهِدُ. – *Tirishqoq talaba keldi.*

Ushbu misolda "الطالب" so‘zi “rof” bosh kelishikda bo‘lganligi sababli, "المجتهد" so‘zi ham “rof” bosh kelishikda bo‘ldi.

رَأَيْتُ السَّيَّارَةَ الْجَدِيدَةَ. - *Yangi mashinani ko‘rdim.*

Ushbu misolda "السيارة" so‘zi “nasb” tushum kelishigida bo‘lganligi sababli, "الجديدة" so‘zi ham “nasb” tushum kelishigida bo‘ldi.

سَلَّمْتُ عَلَى الْأُسْتَاذِ الْكَرِيمِ. - *Hurmatli ustozga salom berdim.*

Ushbu misolda "الأستاذ" so'zi "nasb" qaratqich kelishigida bo'lganligi sababli, "الكريم" so'zi ham "jar" qaratqich kelishigida bo'ldi.

4. Aniqlovchi va aniqlanmishning sonda moslashuvi. Aniqlanmish qaysi son kategoriyasida bo'lsa, aniqlovchi o'sha sonda bo'ladi. Son kategoriyasi uch turga bo'linadi:

- "مفرد" (mufrad) – birlik,
- "مثنى" (musanna) – ikkilik,
- "جمع" (jam') – ko'plik.

الكعبة الكبيرة - katta xona

Ushbu misolda "الكعبة" so'zi "mufrad" birlikda bo'lganligi sababli "الكعبة" so'zi ham "mufrad" birlikda bo'ldi.

شارعان واسعان - keng ikkita ko'cha

Ushbu misolda "شارعان" so'zi "musanna" ikkilikda bo'lganligi sababli "واسعان" so'zi ham "musanna" ikkilikda bo'ldi.

الطلاب المجتهدون - tirishqoq talabalar

Ushbu misolda "الطلاب" so'zi "jam" ko'plikda bo'lganligi sababli "المجتهدون" so'zi ham "jam" ko'plikda bo'ldi.

Agar aniqlanmish g'oyri oqil ko'plik bo'lsa, sifatlovchi aniqlovchi muannas birlikda bo'ladi.

Masalan:

الكتب القديمة - qadimiy kitoblar

Ushbu misolda "الكتب" so'zi g'oyri oqil ko'plikda bo'lganligi sababli "القديمة" so'zi muannas birlikda kelgan.

Yuqorida moslashgan aniqlovchi haqida o'rganib chiqilgan ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, arab tili nuqtai nazaridan moslashgan aniqlovchili birikmalar o'zaro gramatik jihatdan to'rt holatda ya'ni jindsa, sonda, holatda va kelishiklarda moshlashaib keladi. Arab tilida quyidagi kategoriyalar: jins kategoriyasi (muzakkar, muannas); son kategoriyasi (birlik, ikkilik, ko'plik); kelishik kategoriyasi (bosh, tushum, qaratqich kelishigi) va holat kategoriyalari (aniq, noaniq) mavjuddir. Shu o'rinda yana ta'kidlab o'tishimiz kerakki, insonga xos bo'lmagan g'oyri oqil so'zlarning ko'pligi holatida moslashgan aniqlovchisi, muannas birlikka teng holda moshlashib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujabborov A. Arab tili. Darslik. – Toshkent, 2020.
2. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 1997.
4. Muhammadshukur H. Mabda' ul-Qiroat. Darslik. – Toshkent, 2007.
5. San'atulloh Bekpo'lat. Mabdaun nahv. Darslik. – Toshkent, 2014.